



YOSH AVLODGA EKOLOGIK MADANIYATNI SINGDIRISHDA OILANING O'RNI VA ROLI

K.K. Qodirjonov

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Harbiy tayyorgarlik
kafedrası katta o'qituvchisi, podpolkovnik
<https://doi.org/10.5281/zenodo.13374203>

ARTICLE INFO

Received: 14th August 2024
Accepted: 15th August 2024
Published: 18th August 2024

KEYWORDS

ABSTRACT

Hozirgi kunda zamon talabi asosida oilada ekologik huquqiy tarbiya berish, yangi innovatsiya va axborot texnologiyalarni qo'llash kelajakda yoshlarga ekologik muammolarni imkon qadar ijobiy hal etilishiga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi majlisida so'zlagan nutqida, "Ma'lumki, har qaysi mamlakat, har qaysi xalq hayotida **Shaxs - Oila - Jamiyat - Davlat degan tushuncha va qadriyatlar** hal qiluvchi o'rin tutadi. Jamiyatning birlamchi va asosiy bo'g'ini bo'lgan oilani esa muhtaram ayol siymosisiz aslo tasavvur etib bo'lmaydi"[1] - deb ta'kidlagan edi.

Shuningdek, Yurtboshimiz Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali marosimdagi nutqida ham, "Albatta, bu borada belgilangan chora-tadbirlarning mazmuni, sifati va samarasini oshirish uchun hali ko'p ish qilishimiz kerak. Bugungi kunda izchil amalga oshirilayotgan **"Obod qishloq"** va **"Obod mahalla"**, **"Yoshlar - kelajagimiz"**, **"Har bir oila - tadbirkor"** kabi dasturlar ayni shu maqsadlarga qaratilgani bilan ahamiyatlidir",[2] - degan konseptual g'oyalari oilada ekologik huquqiy tarbiya berishning pedagogik xususiyatlarini takomillashtirishga asosdir.

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida ekologik muammolarning globallashib borayotganligi har bir oilada tabiatni muhofaza qilish bo'yicha ma'rifiy ishlarni amlaga oshirib borishni taqozo etadi. Chunki yoshlar oilada dastlabki tarbiyani olar ekan, har bir shaxsda ekologik ong va dunyoqarashni shakllantirishni, ularning intellektual salohiyati, tabiat hodisalariga nisbatan sog'lom fikirli munosabatda bo'lishini, yoshlarning ekologik madaniyatini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimizda "Birni kessang, o'nni ek" degan dono maqol ham bejiz aytilmagan. Oilada yangi farzand dunyoga kelsa, unga atab nihol ekilgan. Afsuski, mana shu ezgu odatlar bugun deyarli yo'qolib ketdi[3].

Bugun dunyo miqyosida texnika va texnologiya, sanoat yuqori darajada rivojlangan XXI asrda ekologiya bilan bog'liq muammolar birinchi darajali muammo sifatida kun tartibiga chiqayotgani bejiz emas. "Biz bu masalada faqat bugunni emas, yaqin va uzoq kelajakni o'ylab ish tutmasak, ko'zlagan maqsadimizga yerisha olmaymiz. Eng muhim masala — aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma'muriy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi. Bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali yerishish mumkin" [4].

Binobarin, bu vazifalarni amalga oshirishda oila tarbiyasida yosh avlodning tafakkuri bilan ekologik bilimga, ekologik madaniyatga ega bo'lib borar ekan, shu asosda atrofni o'rab turgan borliq va tabiat hodisalari haqidagi tushunchalari, ekologik dunyoqarashining shakllanishiga asos bo'ladi.

Shunday ekan, har bir oiladagi sog'lom turmush tarziga, atrofda tabiatga bo'lgan tarbiyaga e'tiborni qaratish, unga doir tavsiyalar ishlab chiqish, yosh avlod ongida tabiat boyliklarini muhofaza qilish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri ekanligini bilishi lozim.

Ana shu ma'noda oilada sog'lom muhitni yaratish, bunday hayot tarziga asoslanib yashash har bir oila a'zolarining muomala madaniyati shakllanishiga, tabiatga ongli munosabatda bo'lishga, bir so'z bilan aytganda esa ekologik ong va ekologik madaniyatning tarkib topishiga imkoniyat yaratadi.

Xalqimizda yaxshi bir naql bor: "Atrof-muhit tozaligi uyning ostonasidan boshlanadi". Har bir xonadonning sarishtaligi, obodligi uning ostonasida, ko'cha-kuy, hovli-joyini toza va saranjom tutishda bilinadi. "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deganlaridek, ota-onalar yosh avlodga tabiat in'om etgan yer va suvni asrab-avaylash, tuproq va havoni ifloslantirmaslik, o'simlik-yashillik olamini saqlash haqidagi o'g'itlarni doimiy ravishda singdirishlari va ularning hayot mezoniga aylantirishlari talab etiladi. Yosh avlodimizga, o'lkamiz uchun tobora qadrli bo'lib borayotgan ichimlik suvidan tejab-tergab foydalanish munosabatini shakllantirish ayniqsa, o'ta muhim masaladir.

Ta'kidlash o'rinliki, bolalik davri inson hayotining ilk, betashvish bosqichi hisoblanadi. Yosh avlod atrof-muhit va unda ro'y berayotgan hodisalarni anglashga emotsional-hissiy yondashadilar. Buning natijasida ularda, asta-sekin hodisalar mohiyatini ifodalovchi shaxsiy qarash, sifat va mustaqil munosabat shakllanib, ularning ruhiyatida saqlanib qoladi. Tabiatning kuchli tarbiyaviy salohiyatini hisobga olib, oila bilan birgalikda tabiat qo'yniga sayohat uyushtirish o'z navbatida yosh avlodning kuzatuvchanligini, o'rab turgan tabiiy muhitdan estetik zavqlanishini, hamdardlik tuyg'usini, tabiat qo'ynida o'zlarini qanday tutish qoidalari va odobini shakllantirishga, ularning sog'lom, ma'naviy va intellektual rivojlanishiga yordam beradi.

Yosh avlodning atrof-muhitga bo'lgan nojo'ya munosabatiga ota-onalar munosabat bildirishlari va buning salbiy oqibatini tushuntirib, tabiiy muhit tozaligi, havoning musaffoligi avvalom bor bizning salomatligimiz, hayotimiz barqarorligini ta'minlashini astoydil o'qitirib borishlari lozim.

"Toza muhit bu sog'lom hayot muhiti" qoidasini oilaning turmush tarzi va dunyoqarashi, kundalik zaruriyati, amaliy ko'nikmasi va hayotiy ehtiyojiga aylantirish zarurdir. Bolada sog'lom turmush tarzining ilk qoidalarini shakllantirishda ota-onalar atrof-muhitni muhofaza qilish, uning tozaligini saqlash, suv, havo va tuproqni ifloslantirmaslik, ulardan tejamkorlik bilan foydalanish har birimizning qonuniy ham insoniy burchimiz ekanligini hayotiy misollariga tayanib astoydil o'qitirishlari kerak.

Ekologik muammo taraqqiyot, xavfsizlik, aholining turmushi va bevosita odamlar hayotining davomiyligiga ta'sir ko'rsatib, ayniqsa aholining eng yosh qismi bo'lgan yosh avlod hayotiga katta xavf soladi. Sir emaski, ifloslangan, zaharlangan atrof-muhit birinchi navbatda hali yosh, endi rivojlanib shakllanib borayotgan organizmga katta ta'sir ko'rsatadi, uning fiziologik va ruhiy rivojlanish holatiga ham ta'sir etmay qolmaydi.

Ayniqsa, hozirgi paytda oilada ekologik omil va talablarga asoslanib sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalalari muhim kasb etmoqda. Bizning nazarimizda, oila – oila a'zolari o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, unga rioya qilish va targ'ib qilish, zararli odatlarni oldini olish, toza musaffo tabiiy muhitni qaror toptirishning kichik yorqin modeli hisoblanadi. Oila a'zolarining munosabati, xo'jalik yuritish uslubi, tartib-qoidalari va odat-ko'nikmalari - oilaning qadriyatlarini belgilaydi.

Ko'p mingyillik jamiyatimiz tarixi shundan dalolat beradiki oilada ma'naviy-ekologik qadriyatlarga va uning qaror topishiga katta e'tibor berilgan. Oxirgi yuz yillikda respublikamiz

ekologik tizimiga katta salbiy ta'sir yetkazildi, ajdodlarimizning tabiatdan foydalanish borasidagi xalq udumlari va an'anaviy odob-ahloq qoidalari unutib yuborildi.

Xalqimiz boy ekologik madaniyatga ega. Asrlar davomida shakllanib kelgan boy milliy ma'naviy qadriyatlarimiz va merosimiz shundan dalolat beradiki, ota-bobolarimiz, ajdodlarimiz Ona zaminga o'zgacha munosabatda bo'lib, suv, tuproq, havoni qadrlaganlar. Tabiat boyliklari va uning ehsonlarini asrab-avaylab, ulardan tejab foydalanganlar. Ma'naviyatimiz poydevori hisoblangan muqaddas hadislarda: "Englar, ichinglar, isrof qilmanglar", deyilgan. Isrof qilmaslik, uvol, gunoh va me'yor kabi tushunchalarni yaxshi anglab yetganlar va kundalik turmush faoliyatida ularga qat'iy amal qilganlar.

Yer va suv umummilliy boylik hisoblanib, xalq farovonligining asosiy manbaidir. Shu bilan birgalikda, inson salomatligi ham millat boyligi hisoblanadi. Binobarin, toza ichimlik suvi har bir oilaning sog'lom hayot yuritishining muhim sharti hisoblanadi. Bugungi avlod o'sib ulg'ayib insonlar hayoti va atrof-muhitni asrab-avaylash haqida hal qiluvchi qarorlar qabul qilishi kerak bo'ladi. Ota-onalar, kattalar tomonidan oilada yosh avlodga birlamchi ekologik madaniyat saboqlari beriladi. Tabiatdagi sodir bo'layotgan hodisa va o'zgarishlarning bevosita har bir kishining salomatligiga, ruhiyatiga, kayfiyatiga ta'sirini ota-onalar o'z yosh avlodiga astoydil tushuntirsa, bu o'gitlar bola ko'nglida muhrlanib, narsa, hodisalarni bilishga hamda oqilona hatti-harakatlarga rioya qilishlariga ularning intilishlari oshadi.

Avvalombor, yosh avlodimizda ekologik madaniyat saboqlarini shakllantirishda kattalarning tabiatga, atrof-muhitga bo'lgan munosabati katta o'rin tutadi. Ota-onalarning atrof-muhit tozaligini saqlashga bo'lgan doimiy e'tibori, say'-harakatlarini ko'rgan va his qilgan yosh avlod, ular orqasidan yergashishga harakat qilishadi, ulardan namuna va o'rnak oladilar. Yerta bahorda hovli va ko'chada oila davrasida birgalikda daraxt ekish, uni parvarish qilish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish, hovlini obod qilish har bir bola uchun yaxshi namuna maktabini o'taydi hamda atrof-muhitga bo'lgan ezgu va bunyodkorlik munosabatini belgilashda zamin yaratadi.

Ota-onalar yosh avlodning yerta yoshligidanoq bu moyilliklarni aniqlab, bu yo'sinda ish olib borishlari farzandlarining dunyoqarashini kengayishiga olib kelib, yaxshi natija beradi. Yosh avlodning maktabda olgan tabiat haqidagi bilim va saboqlarini ota-onalar ularga kundalik hayotda rioya qilishlarini va amalda tatbiq etishlarini tushuntirishlari lozim. Farzandlarimiz munosabatida isrofgarchilik alomatlariga aslo yo'l qo'ymaslik, uni oldini olish, tejamkorlik va tadbirkorlik xislatlarini yoshligidanoq singdirish zarur. Tabiat tuganmas xazina emas, ko'plab tabiat boyliklari tiklanmaydi.

Ota-onasining atrof-muhitga hatti-harakati bolada qanday munosabat uyg'otadi? Axlat va chiqindilarni duch kelgan yerlarga to'kish, uni yondirish, ayniqsa kuzgi xazonrezgi davrda xazonlarni yoqib havoni bulg'aydigan noxush holatlariga beihtiyor ko'zimiz tushadi. Eng achinarlisi biz ba'zan

bu jarayonga yosh avlodni ham tortmoqdamiz, shu kabi ishlarni ularga buyurib oxir-oqibatda ularni bunday salbiy harakatlarning bevosita ishtirokchisiga ham aylantiramiz. O'z navbatida esa yosh avlod kattalar harakatidan, munosabatidan o'rnak oladilar.

Yosh avlodning atrof-muhitga bo'lgan nojo'ya munosabatiga ota-onalar munosabat bildirishlari va buning salbiy oqibatini tushuntirib, tabiiy muhit tozaligi, havoning musaffoligi avvalom bor bizning salomatligimiz, hayotimiz barqarorligini ta'minlashini astoydil o'qtirishlari lozim.

Binobarin, hozirgi bozor iqtisodiyoti davrida yer, suv, tabiiy gaz va boshqa resurslardan oqilona, samarali va tejamkorlik bilan foydalanish oilaning daromadi va farovonligiga ta'sir etishini yosh avlod bilishlari foydadan holi bo'lmas.

Dunyo hamjamiyati oldida turgan muhim vazifalardan biri hozirgi va kelajak avlod uchun toza, sog'lom, xavfsiz atrof-muhitni yaratish masalasi hisoblanadi. Barqaror rivojlanish zaminida aynan hozirgi va kelajak avlodlar manfaati – yosh avlod, farzandlarimiz manfaati, ularni xavf

ostiga qo'ymaslik, ular uchun toza, sog'lom va xavfsiz atrof-muhit va farovon hayot yaratish masalasi turganligini aytib o'tish joiz.

Tabiatga yaqinlik, ona zaminga muhabbat, jonajon o'lkaning go'zalliklaridan bahramand bo'lish yosh avlodni ma'naviy-ruhiy jihatdan boyitib nafis didini shakllantirdi hamda muqaddas zamin o'z ona-yurtining farovonligi va tabiatining musaffoligi to'g'risida qayg'urishni o'zlarining burch va mas'uliyatli ekanliklarini yuraklari bilan his etadilar. Tabiatni muhofaza etish, uni boyliklarini avaylash va undan oqilona foydalanishni davrni o'zi talab etib, barchamizni tabiatga yanada e'tiborliroq va mas'uliyatliroq bo'lishga undamoqda.

Shundan kelib chiqib quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- yosh avlodda atrof-muhitga bo'lgan dahldorlik munosabatini shakllantirish, ularda mas'uliyat hissini uyg'otish va tarbiyalash, tabiat resurslaridan – yer, suv, energiyadan, barcha xom-ashyolardan ehtiyotkorlik, tejamkorlik va sarhisoblik bilan foydalanish, ya'ni uvolga yo'l qo'ymaslik ko'nikmalarini ularning kundalik hayotida singdirishimiz, bu hatti-harakatlarda shaxsiy namuna amallarini ko'rsatish;
- yosh avlodning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasiga asosiy urg'u berib, ularda yuksak insoniy fazilat, atrof-muhitga bo'lgan munosabatning yaratuvchanlik, bunyodkorlik va obod etish sifatlarni qaror toptirish orqali ekologik ma'naviyatni va tabiatga bo'lgan yangi qarashni shakllantirish;
- oila muhitida toza ichimlik suvidan samarali foydalanish madaniyatiga qat'iy amal qilish har bir oila a'zolarining ajralmas fazilatiga aylanishini;
- yosh avlodimizda ekologik huquqning birlamchi kurtaklarini, ya'ni atrof tabiiy muhitga bo'lgan o'z fuqaroviy burch va majburiyatlarini anglab etishlariga, ekologik xavfsiz muhit insonlarning sog'lom hayot kechirishlariga hamda sanitariya ekologik holatining yaxshilanishiga zamin bo'lishini tushuntirib borish;
- yosh avlod tomonidan turli hayotiy vaziyatlarda qaror qabul qilayotganlarida, albatta atrof-muhit holatini e'tibordan chiqarmaslikni va uni hisobga olish zarurligini, bolaning atrof-muhitni toza saqlashda ko'rsatgan amallarini ota-onalar doimiy ravishda qo'llab-quvvatlashi hamda tabiatga qilingan nojuya hatti-harakatning qanday salbiy oqibatlarga olib kelishini o'qtirib borish;
- farzandlarimizni bo'sh vaqtlarida bevosita tabiat qo'ynida, hayvonot va o'simlik olamining turli tuman ekanligini anglashi, rang-barang go'zalliklaridan ularni bahramanad qilish borasida imkon qadar birgalikda tabiat qo'yniga sayohatlar uyushtirish. Zero, biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar va barchamiz yosh avlodimizning barkamol inson bo'lib voyaga etishiga va ularning o'z ona zaminini naqadar asrab-avaylashga qodir ekanligiga javobgarmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi majlisidagi nutqi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2019 yil 22 iyun.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali marosimdagi nutqi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2019 yil, 8 mart.
3. Haydarov Q., Nishonov S. Tabiatshunoslik asoslari va yosh avlodni atrof-tabiat bilan tanishtirish. – T.: O'qituvchi, 1992. – 238 b.
4. O'E. Xo'janazarov, Sh. Yakubjonova. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. O'quv qo'llanma: "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2018. – 208 b.